



UDK:413.164:8-83(021)

Feruza UMUROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: 4603448@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, dotsent X.Narxodjayeva taqrizi bilan

GENDER REPRESENTATION OF THE REFERENCE SCHEME OF POLITENESS

Annotation

In the article, it is analyzed that politeness is a complex social and cultural phenomenon, and that, according to the gender expression of politeness, the term of appeal is found in fiction and in the speech of heroes in different qualities. Manifestations of politeness in women's and men's speech, manifestation of politeness in different contextual meaning forms are analyzed on the example of literary text.

Key words: Politeness category, reference scheme, gender concept, artistic text, women's and men's speech.

ГЕНДЕРНАЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ЭТАЛОННОЙ СХЕМЫ ВЕЖЛИВОСТИ

Аннотация

В статье анализируется, что вежливость представляет собой сложное социокультурное явление и что по гендерному выражению вежливости термин обращения встречается в художественной литературе и речи героев в разных качествах. На примере художественного текста анализируются проявления вежливости в женской и мужской речи, проявление вежливости в разных контекстуально-значительных формах.

Ключевые слова: Категория вежливости, референтная схема, гендерная концепция, художественный текст, женская и мужская речь.

XUSHMUOMALALIKNING MUROJAAT SEMASINING GENDER IFODALANISHI

Annotatsiya

Maqolada xushmuomalalik murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa ekanligi, xushmuomalalikning gender ifodalanishiga ko'ra murojaat semasining badiiy adabiyotda, qahramonlar nutqida ham turli sifatlarda uchrashi tahlilga tortilgan. Xushmuomalalikning ayollar va erkaklar nutqida xushmuomalalikning murojaat semasining ko'rinishlari, turli kontekstual ma'no shakllarda namoyon bo'lishi badiiy matn misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Xushmuomalalik kategoriyasi, murojaat semasi, gender tushunchasi, badiiy matn, ayollar va erkaklar nutqi.

Kirish. Insoniyat paydo bo'lgandan beri jamiyatda erkak va ayollar o'zini farqlanadi. Bu farqlar bir necha fanlar kesimida sotsiologiya, psixologiya, sotsiologiya kabi sohalar bilan birga boshqa fanlar bilan bog'lovchi yangi tahlil usullariga qiziqish kuchaymoqda. Bu tahlil usullari bilan bog'liq ilmiy nazariyalar tilshunoslikda yangi zamonaviy yo'nalishlarda tahlil qilinmoqda. Ana shunday yo'nalishlardan biri lingvogenderologiya sohasidir. Lingvogenderologiya sohasining asosiy tadqiq manbai tilning gender xususiyatlarini o'rganadi, shu bilan birga ikkita masala: ayollar va erkaklar nutqining tafovutlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini, til tizimida erkaklik va ayollik belgilari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi til birliklariga e'tibor qaratilishini ochib beradi. Tilshunoslikda ham lisoniy va nolisoniylar birliklar qo'llanishida yoki ayollar va erkaklar nutqida lingvistik va ekstralingvistik birliklar qo'llanishi farqlanadi. Tilshunoslikda gender masalalarini o'rganishda nutqiy faoliyatning barcha ko'rinishlari: yozma va og'zaki matnlar tadqiqot objekti bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Jins (inglizcha: gender, lotincha: genus "mehribon") — erkaklik va ayollik bilan bog'liq xususiyatlar spektr [1] tushunchasini ifoda etadi. "Gender" tushunchasi erkak va ayollarning psixologik, ijtimoiy va madaniy o'ziga xos jihatlari bilan birga farqli xususiyatlarini ham nazarda tutadi. Tilimizda "gender" atamasi bilan bir qatorda "gender tenglik", "gender development" (gender rivojlanish) kabi atamalar faol qo'llanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Daniyalik tilshunos Otto Yespersen esa e'tiborini e'rkaklar va ayollarning tildagi mavjud birliklardan foydalanishiga,

ularning so'z qo'llashda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratdi. U o'z tadqiqotlarida ayollarning nutqiy vaziyatdan kelib chiqib ko'proq hissiyotga berilishiga, shuning uchun o'n besh evfemizmlardan ko'proq, ba'zan esa imkonsiz qolganda vulgarizmlardan foydalanishga majbur bo'lishga moyilligini ko'rsatib beradi.

Gender tahliliga doir ishlarni Yevropa tilshunosligida Y.D. Dsherieyev, nemis tilshunosi Fris Mautner, daniyalik olim Otto Esperes va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. O'zbek tilshunosligimizda G.I. Ergashevaning "Turli tizimli tillarda genderga oid terminologiyani shakllanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar", N.A. Atabayevaning "Frazologik birlik va maqolalarda gender talqini", N.Z. Nasrullayevaning "Ingliz va o'zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarning shakllanishi", A. Marozova esa gender tilshunoslikni ispan tiliga asoslab, "erkaklik" va "ayollik" masalasiga bo'lib tahlil qiladi. I. To'xtasinov ingliz va o'zbek tilidagi badiiy matnlarda qo'llanuvchi erkak hamda ayollarga xos jismoniy unsurlarni o'rganadi. B.R. Ahmedovning "O'zbek tilida gender tadqiqi" shuningdek, Sh. Iskandarova, S. Mo'minovlarning ilmiy tadqiqotlarida shu sohani yoritish borasidagi ko'plab ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyatda erkaklar va ayollar nafaqat biologik farqlanadi, balki ularning ma'naviy olami, madaniy, ijtimoiy dunyoqarashi, tildan foydalanishning o'ziga xos usul, uslublari bor. Ayniqsa, bu murojaat shakllarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirda xushmuomalalik ko'rinishi sifatida ma'naviyatimizda, nutqiy madaniyatimizda faol qo'llanila-

yotgan, tilimiz boyligining o'ziga xos ifoda, vositalaridan biri bo'lgan murojaat so'zlari ham tilimizda o'z ahamiyati bilan ajralib turadi.

Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyatida – nutq jarayonida keng qo'llaniladigan, o'zaro aloqa aralashuvga faol xizmat qiladigan, so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan, o'zida turli modal ma'nolarni tashiydigan o'tkir, ta'sirchan vositadir. Murojaat birliklaridan nutqda tinglovchi e'tiborini tortish, xitob qilish, undash kabi maqsadlarda foydalaniladi. Bunday birliklarni badiiy matnda qo'llanishi qahramonlarning o'zaro bir-biriga yaqinligini, hurmat, ishonch; hurmatsizlik, ishonchsizlik kabi kommunikativ munosabatlarni ifodalashda xizmat qiladi. Shunga ko'ra, doimiylik belgisiga ega bo'lgan murojaat birliklari nutqda appelyativ (xitob va murojaat orqali muloqotni boshlash), konnotativ (subyektiv munosabat – salbiy va ijobiy munosabatlarni ifodalash), emotiv (hissiy munosabat) funksiyalarni bajaradi [2].

– Kelinglar, otinoyilar! Yaxshiyam sakkizinchi mart bor ekan. Shu kundayam diydor ko'rishmasanglar, bilmadim. (Sh.Xolmirzayev “Qushlar qishlovdan qaytdi”). O'zbek millatida ayollarga nisbatan turli nomlar bilan chaqirish, ularni ulug'lashni ifodalovchi xushmuomalalik birliklari orqali chaqiruv ma'nosi anglashiladi. “Otinoyilar” so'zining qo'llanilishi orqali ayol jinsidagi kishilarga nisbatan chorlov, chaqiruv ma'nolari ifodalanganligi yaqqol sezilib turibdi.

Tahlil va natijalar. Tarixiy davr leksikasida, tarixiy asarlarda erkak va ayollar nutqining o'ziga xos farqli holatlari tahlil jarayonida yaqqol seziladi. Bu farqli holatlar xushmuomalalikning murojaat semasining murojaat shakllarida o'z ifodasini topgan. Murojaat shakllari yana shu jihati bilan xarakterliki, ularda so'zlovchi va tinglovchining jinsi yaqqol namoyon bo'ladi.

–“Sizdan ham o'tinamen, hazratim, — davom etdi Oyisha begim, — ko'p azob tortgansiz. Samarqand sizga jangsiz darvoza ochmas. Endi o'zingizga rahm qiling. Urushga bormang, o'tinamen! — Begim, bu yerdagi hozirgi ahvolimiz sizga ham munosib emas, menga ham”. (P.Qodirov. “Yulduzli tunlar” romani)

Badiiy matnda qo'llanilgan “hazratim”, “begim” murojaat shakllari orqali ayol jinsidagi adresatning kommunikatsiya jarayoniga kirishishda xushmuomalalik bilan yondashishi, bu atamalar ikki qahramon o'rtasidagi yaqinlikni yaqqol ifodalab kelmoqda. Shu bilan nutq qaratilgan shaxsga itoatkorlik, iltijo, hurmat ma'nolari ham anglashiladi.

–Hazratim, bergan o'gitingizni bebaho gavhar o'rnida qabul qilurmiz, — dedi Nigor xonim. (P. Qodirov “Yulduzli tunlar”)

–“Begim, garchi achchiqlansangiz ham aytishga majburman”. (A.Qodiriy)

–Endi kuyovlik muborak bo'lsin, begim?” (A.Qodiriy).

–“Taqsir, sizga arz bor”. (A.Qodiriy).

Keltirilgan badiiy matndagi xushmuomalalikning murojaat shakli sifatida qo'llangan so'zlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, xalqning milliy mentaliteti, yuqori mansab kishilarini hurmat, jamiyatdagi turli tabaqalar orasidagi rasmiy va norasmiy bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, hamda ayollarning turmush o'rtogiga ham bo'lgan ruhiy ma'naviy o'ziga xosliklar belgilanishi mumkin. Murojaat birliklari ham o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayonida ma'lum bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, o'zbek madaniyatida o'zida aks ettiradi. Insonlar muloqotga kirashar ekan, bu jarayonda murojaat so'zlarga murojaat qiladi. Oila a'zolari, qarindoshlar, tanishlarga nisbatan ishlatiladigan murojaat birliklari kecha yoki bugun emas o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayonida ma'lum bosqichlarni bosib o'tib shakllangan. Bu orqali u ma'lum bir ma'nolarni tashiydi.

–“Bolam, tura qolgin. Jon bolam, kun yoyilib ketdi. Turaqol, jon bolam” (S.Ahmad “Ufq”, 12-b.)

“O'g'lim, bolajonim, ko'nglimni g'ash qilib turgan bir gapni aytсам, xafa bo'lma, har holda onangman” (O'lmas Umarbekov. “Sovg'a”).

O'zbek millatida bolalar azaldan erkalanib, suyib murojaat qilinadi. Ayollar va erkaklar nutqida bolalarga murojaat qilinganda xushmuomalalikning eng yuqori darajasini ko'rishimiz mumkin. Bu o'zbek millatining bolajonligi bilan belgilasak mublag'a bo'lmaydi.

–“Habibjon, kemaysanmi endi?.. Turnalar ke-etdi. Lekin bir narsa yog'adi”. (“Qushlar qishlovdan qaytdi”. Sh.Xolmirzayev).

Shuningdek, millatimizga xos bo'lgan ismga -xon, -bek, -jon kabi ismning lug'aviy shakllarini qo'shish orqali ham xushmuomalalik ifodalanadi. Bunda murojaat qiluvchi shaxs jinsi yaqqol namoyon bo'ladi. Ayollarda -xon, -oy qo'shimchalari ismlardan keyin qo'shilib, murojaat ma'nosiga ijobiylik xoslaydi.

–“Shunqorim, mard lochinim! Bu yoqqa qarachi, ko'zlaringga to'yib boqay!” (Ch. Aytmotov “Jamila”).

–“Eh, tentak qizim, qo'zichog'im”. (Sh.Rashidov G'oliblar) – Kel, bacham! – dedi pastdan qo'lini cho'zib. (“Ikki eshik orasi”. O'. Hoshimov).

Ushbu misollarda metaforik usulda xushmuomalalik murojaat semasi ifodalangan. Hayvonlar, qushlar, jonzorlarning tabiat bergan noyob va inson hayrat qiladigan xususiyatlari inobatga olinib e'tirof, erkalash ba'zan hurmat ma'nosida shunday murojaatlar qo'llanadi. Bundan tashqari, yoshi ulug' katta so'zlovchilar nutqidagi kommunikatsiya jarayonida murojaat shakllari o'zining ma'no bo'yoqdorligi bilan ham xarakterlanadi. Ular nutqida “bo'tam”, “arslonim”, “toychog'im”, “shunqorim”, “jonim”, “bolam” kabi murojaat shakllari uchraydi.

–“Ha, yesa mayli, og'ajon. Ehtiyot bo'lasiz-da”. (“Bandi burgut”. Sh.Xolmirzayev).

Xalqimizda qarindoshlik munosabati bo'lmagan kishilarga ham yaqin olib, xushmuomalalik qilib, “xola”, “tog'a”, “og'a”, “opa”, “aka” so'zlari murojaatda unumli foydalanamiz. Bu murojaat birliklaridan badiiy matnda ham unumli qo'llanadi.

–“Oy yuzli rafiqam, kunduz qoshli mashuqam Kumush xonimga”. (A.Qodiriy).

Ushbu murojaat orqali sevikli yorga nisbatan bildirilgan dil izhor, erkalash, ko'klarga ko'tarish ma'nolari ham ifodalanadi.

–“Aylanay bolam, sho'rlikkinam! Xudoning qasdi bor ekanmi senda, jon bolam!” (“Sabo va Samandar”. U.Hamd).

Tasalli holatida murojaat leksikasida kishining mehribonligi bilan birga rahm- shavqat munosabatlari ham ko'rinadi. Bu murojaatda uslubiy bo'yoqqa ega bo'lgan shu bilan birga ayollarga xos murojaat shakli ko'rinadi. Tasalli holatida murojaat semasi qo'llanilganda ayollar nutqida “sadaqa bo'lay”, “o'rgilay” kabi so'zlar ko'p qo'llaniladi. Odatda yoshi ulug' ayollar nutqida bu so'zlar ko'p uchraydi. Ijobiy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlovchining xayrixohligini ifodalagan xushmuomalalik munosabat ekanligini ushbu misollarda ko'rishimiz mumkin:

–“Voy, o'g'limdan aylanay! — Shahodat xola sevinib ketdi.

– Voy, bolaginam-a! Pul yuborib nima qilarkan! Xatpat ham bormi?

– Huvv, tasadduq, huv-v-v! — degan cho'ziq ovoz eshitildi.

– Bir qatim emas, bir g'altak oling, tasadduq. Ip sizdan aylansin!” (“Sovg'a”. O'lmas Umarbekov).

–Men sizni olib ketgali keldim, aylanay! — dedi. (“Kecha va Kunduz”. Cho'lpon).

“- Barakalla, tasadduq! – deydi Ermon buva jilmayib. – Umringizdan baraka toping...” (“Dunyoning ishlari”. O‘.Hoshimov).

Ayollar va erkaklar nutqining o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri ayollarning erkaklarga qaraganda nutqiy vaziyatda xushmuomalalik, odoblilik hamda hurmat ko‘rsatuvchi birliklarni ko‘proq qo‘llashi bilan farqlanadi.

“- Voy uyingga bug‘doy to‘lgurlar, voy ko‘paygurlar, kela qolinglar, - deydi ovozi tovlanib (“Dunyoning ishlari”).

“- Bahay! Mehmon otangdan ulug‘! – pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi. – Xush kepsiz, mehmon!” (“Ikki eshik orasi”. O‘.Hoshimov)

“- Qorako‘zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Majnun, yaralaringga dori surtaman. (“Qora ko‘z majnun”. S.Ahmad).

Xushmuomalalikning ifodalanishida ohang va urg‘u ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabati ijobiy shu bilan birga mulozamatga boy bo‘lsa, shu munosabatni ifodalovchi, biri ikkinchisini mazmunan to‘ldiruvchi gaplar ham shunga mos tarzda zanjirsimon ko‘rinishda o‘zaro bog‘lanib, yaxlitlik hosil qiladi.

“- E, chavondoz paxlavonlar, otlaringni aravagaga qo‘shinglar. (“Ikki eshik orasi”. O‘.Hoshimov)

“- Egam bergan aziz ne‘matim, har gulni o‘zgacha isi bo‘lgan bilan, bulbulni suygani qizil gulni o‘zi emasmi? Ro‘zg‘orimning bahori Oyxon, meni otam yoshligimdan dala mehnati bilan o‘stirgan. (“Maysaraning ishi”. H.H.Niyoziy).

Badiiy matnda ayollar nutqida ko‘proq hissiy munosabatning kuchli ifodalanishi ko‘proq kuzatiladi: “- O‘zimning ulginam, suyanchiqqinam, - derdi shunday paytlari onasi uni erkalab. – Silardi deb dunyoda yashab yuribman-da, mening mehribonginam”. (“Urush odamlari”. N.Eshonqul).

O‘zbek tilida ayollar nutqida –im egalik qo‘shimchasining erkalash orqali xushmuomalalikni ma‘nosining ifodalanishida faolligi seziladi. O‘zbek tilida o‘zlik olmoshining “o‘zimning qo‘zichog‘im”, “o‘zimning toychog‘im”, “o‘zimning asalim” kabi birinchi shaxs birlikdagi ko‘rinishi ishtirokidagi erkalash ma‘nosini ifodalovchi ayrim leksik birliklar, yuklamalar, his-hayajonni ifoda etuvchi til birliklari, takrorlash, metafora kabi stilistik vositalar ma‘noni kuchaytirish, ta‘kidlash shuning xushmuomalalik belgisi sifati asosan ayollar nutqida qo‘llanadi. Biz tahlillarimizda bu vositalarni xushmuomalalikning murojaat semasiga kiritishni ma‘qul topdik.

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatimizda kishi ma‘naviyatini belgilovchi xushmuomalalik va uning turli semalari, nutqiy madaniyatimizda faol qo‘llanilayotgan, tilimiz boyligining o‘ziga xos ifoda vositalaridan biri bo‘lgan murojaat so‘zlari ham o‘z ahamiyati bilan ajralib turadi. Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Badiiy asar matmlarida, kundalik hayotimizda, ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy, iqtisodiy jarayonlarda, ko‘plab, bunday leksikalarni uchratishimiz mumkin. O‘zbek tilida xushmuomalalik semasi murojaat so‘zlarning gender ifodalanishi tinglovchini nutq jarayoniga undash, nomlash, shaxsiy munosabatlarni ifodalash, muloqotga kirishish, nutq qismlarini bog‘lash vazifalarini bajarishda muhim vositasi bo‘libgina qolmay, murojaat so‘zlarining erkak va ayollarning o‘ziga xos tabiati, jins mansubligi, yoshi, ijtimoiy mavqei, nutq vaziyatiga ko‘ra qo‘llanishi bilan bog‘liq jihatlarini ham ochib beradi.

Xulosa. Murojaat so‘zlarning gender jihatdan tadqiq qilish, adresantning dunyoqarashi, jinsi, yoshi, mavqeyi, shuningdek, adresantning adresatga bo‘lgan munosabatini ochib berishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender>.
2. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007.
3. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy – lisoniy xususiyatlari. Filol. fanlari d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2000. – 41.
4. G.Toirova. “Nutqning etnosotsioprakatik tahlili asoslari” (PhD.) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017.
5. Qurbonova M. Hozirgi zamon o‘zbek tili. –T. 2002. –B. 67.
6. O‘. Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”. – Toshkent: «Sharq» nashriyot matbaa konserni Bosh tahririyati, 1994.
7. O‘rkiir Hoshimov “Ikki eshik orasi” “Sharq” nashriyoti Toshkent-2012.
8. S. Ahmad “Ufq” “Sano standart” nashriyoti: – Toshkent, 2019.
9. Oybek “Qutlug‘ qon” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2018.
10. A. Qodiriy “O‘tkan kunlar”, “Yangi asr avlodi” nashriyoti. – Toshkent, 2016.
11. Rasmiy nutqiy muloqotning lingvomadaniy aspekti. Monografiya. – Qarshi, 2023. – 110 b.